



MTO
Gas Chemical
Complex

— THE FLAGSHIP
OF THE THIRD RENAISSANCE

Mas'ulyati cheklangan jamiyatining inson huquqlari siyosati

«Gas Chemical Complex MTO Central Asia» MChJ

MAS'ULYATI CHEKLANGAN JAMIYATNING INSON HUQUQLARI SIYOSATI

«Gas Chemical Complex MTO Central Asia» MChJsi ushbu Siyosati orqali Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlar to'g'risidagi deklaratsiyasi, Global shartnoma va BMTning, Biznes va inson huquqlari to'g'risida, umume'tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarining asosiy va qaytarib bo'lmaydigan mohiyatini e'lon qilgan yetakchi tamoyillariga sodiqligini tan oladi. Inson huquqlarini hurmat qilish Kompaniya va mahalliy hamjamiyatlarning barqaror rivojlanishining asosidir.

Bir hil imkoniyatlar, kamsitilishga yo'l qo'ymaslik

- Kompaniya har bir shaxsga munosib munosabatda bo'lish va har qanday kamsitish, ta'qib qilish va shaxsiy hayotga aralashish kabi ko'rinishlarining oldini olishga asoslangan ish muhitini yaratadi. Kompaniya xodimlarning qiynoqqa solinmasligi yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga duchor qilinmasligini ta'minlash uchun har qanday nazoratni amalga oshiradi.
- Kompaniya o'z xodimlari va hamkorlariga nisbatan irqi, jinsi, rangi, tili, dini, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, jismoniy holati, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari bo'yicha kamsitishning har qanday shakliga aslo toqat qilmaydi va hech bir shaklda yo'l qo'ymaydi.
- Kompaniya kadrlar bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarni faqat xodimlar va nomzodlarning kasbiy va amaliy salohiyati kabi ob'ektiv mezonlar asosida qabul qiladi.

Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik

- Kompaniya O'zbekiston Respublikasida belgilangan talablarga hamda mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash va xavfsizlik sohasida xalqaro standartlarga amal qiladi.
- Kompaniya baxtsiz hodisalar, xodimlar va mahalliy aholining sog'lig'iga zarar yetkazadigan xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratadi va qo'llab-quvvatlaydi.

Axloqiy xulq-atvor

- Kompaniya xodimlarni ish joyidagi hamkasblar yoki rahbariyat tomonidan har qanday ta'qib, tajovuz, suiste'mol yoki tahdidli xatti-harakatlardan himoya qiladigan o'zaro hurmatga asoslangan ijobiy biznes muhitini yaratadi va qo'llab-quvvatlaydi.
- Kompaniya maxfiylik talablariga rioya qilgan holda, kasbiy rivojlanish va ish joylarida halol ma'lumotlar almashinuvini qo'llab-quvvatlaydi.

Ish vaqti, ta'til va ish haqi

- Kompaniya O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligining ish vaqti, qo'shimcha ish vaqti, ish haqi, nafaqa va kompensatsiyalar bo'yicha barcha talablariga rioya qiladi.
- Kompaniya barcha xodimlarning yillik to'lanadigan ta'til va vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi uchun kompensatsiya, shuningdek, to'lanadigan ota-ona ta'tillari, farzand tug'ilishi yoki asrab olinishi munosabati bilan ta'til, shuningdek kasbiy ta'lim bilan ishni birlashtirgan xodimlar uchun ta'tilga bo'lgan haq huquqini to'liq ta'minlaydi.

Ta'lim va malaka oshirish

- Kompaniya xodimlarning malaka, ko'nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini Kompaniyaning o'qitish rejasiga muvofiq o'qitish xarajatlarini qoplash orqali qo'llab-quvvatlaydi.
- Kompaniya xodimlarni mehnat muhofazasi, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha majburiy o'qitish bo'yicha qonun hujjatlari talablariga muvofiq xodimlarni o'qitish va brifing o'tkazishni ta'minlaydi.

Bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish

- Kompaniya bolalar mehnatidan foydalanishni istisno qiladi. Jamiyatda xodimlarning eng kam yoshi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga, shuningdek, xodimlarning yoshi bo'yicha xalqaro normalarga mos keladi.
- Kompaniya majburiy mehnatning hech qanday shakllarini, shu jumladan, majburiy mehnat va qullik mehnati kabi shakllarini aslo tan olmaydi va bunga yo'l qoymaydi.

Kompaniyadagi tashkilotlar va birlashmalarga a'zolik huquqi

- Kompaniya xodimlarning bevosita yoki o'z vakillari orqali qonuniy huquqlarini himoya qilishlariga to'sqinlik qilmaydi.
- Kompaniya, agar bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmasa va Kompaniyaning obro'-e'tiborga xavf tug'dirmasa, xodimlarning tinch yig'ilishlar o'tkazish va birlashmalarga a'zo bo'lish huquqini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmaydi.
- Kompaniya xodimlarni hech qanday tashkilot yoki uyushmaga a'zo bo'lishga majburlamaydi.

- Kompaniya xodimlariga xizmat vazifalarini bajarishlari uchun ham, ish vaqtidan tashqari yaqin qarindoshlari bilan muloqot qilishlari uchun ham Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

«Gas Chemical Complex MTO Central Asia» MChJ
Bosh direktori



Shakirov M. M.
